

Ishtirok etuvchilar

Sohibqiron Amir Temur - 67-72 yoshlarda.

Suluvko'z - Sohibqironning eng so'nggi va eng suyukli rafiqasi.

Opa-singil Saragul va Aqchagul. Suluvko'zning yosh kanizlari.

Qalqonbek - Eshik og'asi yoki saroybon 25B"26 yoshlarda.

Bosqonbek - Sohibqironning qo'riqchisi 22 yoshlarda (ular aka-uka).

Bibi Sardor - Sohibqironning birinchi xotinlaridan, Haram bekasi. 60 yoshlarda.

Sulton Boyazid - 50B"60 yoshlarda.

Mirzo Shohruh B"25 yoshlarda.

Shayx Nuriddin - 60 yoshlarda.

Amir Barlos Tegin - 55B"60 yoshlarda.

Hakimi azam - 60 yoshlarda.

To'xtamishxon - 40 yoshlarda.

Chingizxon - 55B"60 yoshlarda.

Muarrix - 50 yoshlarda.

Yasovullar, sipohlar, mulozimlar.

Muqaddima

O'tordagi ikki bo'lmadan iborat qarorgoh. O'ng tomondagi xonaning to'rida baland to'shak. To'shakda xasta Sohibqiron hazratlari yetibdilar. So'rining bosh tomonidagi sakkiz qirrali xontaxtada dori-darmonlar solingen behisob shisha va ko'zachalar. Poygakda chuqur sukutga cho'mib, Hakim azam bilan eshik og'asi Qalqonbek o'tiribdi. Burchakdagi o'choqda lovillab saksovul yonmoqda.

Qorong'idan: Sohibqironning "Bibim! Bibijonim! degan ovozi keladi.

Sohibqiron. Bibim, bibijonim. Izlay-izlay keksayganda topgan duru gavharim. Nechuk meni kutmading? Meni kutmay aziz joningga qasd qilding?

Suluvko'z. Boshqa choram bo'ljadi, amirim, Olloq qovushtirg'on jufti halolim!

Sohibqiron. Bilamen, malagim, barini bilamen.

Suluvko'z. Yo'q, bilmaysiz, amirim, bilmaysiz. Bibingizning birda-bir gunohi o'zingiz topshirg'on masjidi jomeni qurib tugatmoq erdi, Sizga bebafo bir tuhfa in'om etmoq erdi, ul shum niyatlar ersa...

Sohibqiron. Ul shum niyatlarning bari mening qahrimga duchor bo'l mish. Ammo ne foyda, bibijonim? Sendan judo bo'l dim. Bir umr qidira-qidira topgan duru-gavharimdan ayrildim. Yaratgan egam shohid ekanki, mana seni ko'rmoq nasib etibdi. Yaqinroq kel, malikam, visolingni ko'rib, diydoringga to'yay (o'midan turmoqchi bo'ladi).

Suluvko'z. Yo'q-yo'q, men ketgan makon tomon talpinmang. Hali bul makonda qiladurg'on savob ishlaringiz ko'p! Xudoyim sizni shul niyatlarining yetkazgay. Men tomon shoshilmang, sira shoshilmang!

Sohibqiron. To'xta, bibim, bibijonim!..

Suluvko'z. Bu so'zlardan endi ne foyda? O'shanda, siz Sulton Boyazidga qarshi qo'shin tortgan oqshomda men sizga zor-zor yig'lag'on erdim, saroydagi ilon va chayonlarga yem bo'laman, birga olib keting,- deb oyog'ingizga yiqilgan edim. Esingizdam?

Sohibqiron. Esimda malagim, esimda...

Suluvko'z. Maydonda nog'oralar gumburlar, otlar dupiri osmonu falakka chiqqan erdi. Esingizdam...

Sohibqiron. Esimda, suluvim, esimda. To'xta, gavharim... Qayoqqa shoshasan, yolg'izim? Esimda...

Suluvko'z. Yo'q, ishonmaymen! Ottar dupiri, karnay-surnay sadosi, nog'oralar gumburi esingizda bo'lsa bordur. Ammo men sho'rlikning ko'z yoshlarim... yo'q, ishonmaymen!

(Qorong'ulikka singib ketadi).

Sohibqiron. To'xta, bibim, bibiginam...

Qorong'ilik tomon talpinadi va yostiqqa yiqiladi. Chiroq yonadi.

Parda

Birinchi parda

Birinchi ko'rinish

Sohibqiron Amir Temur dorulsaltanati, Samarqand. Ko'ksaroyning ikkinchi oshyonasiga joylashgan ko'r kam xona. Ro'paradagi yumaloq darichadan yiroqdagi muhtasham qasrlar, masjidu madrasalar ko'zga chalinadi. Yaqinrokda esa mahobatli gumbazlari hali bitmagan Bibixonim masjidining muazzam peshtoqlari ko'rinish turibdi.

Xonaning o'rtasida sakkiz qirradi xontaxta va bir nechta naqshinkor kursilar, chetlarida gir aylana shoyi ko'r pacha va par yostiqlar. O'ng tomondan Sohibqiron hazratlarining eng kenja va eng suyukli rafiqasi Suluvko'zning xonasiga kiradigan, chap tomonda esa boshqa xonalarga o'tadigan eshik.

Parda ochilishi bilan chap tomondagi eshikdan qo'llarida noz-nematlar to'la barkashlar, Suluvko'zning kanizlari opa-singil Saragul bilan Aqchagul kiradilar. Shu zahoti tashqarida nog'oralar gumburi, karnaylar sadosi yangraydi, otlar kishnaydi.

Opa-singillar ro'paradagi darichani lang ochadilar. Nog'oralar gumburi va karnay sadolari xonani larzaga soladi.

Aqchagul. Tumonat lashkarlar! Muzaffar yurish boshlanmish!

Saragul. Bir-biridan ko'r kam alp yigitlar. Tangrining o'zi asragay!

Aqchagul. Oy borib, omon qaytinglar (yig'laydi).

S a r a g u l . Sabab? Yig'laysan? Undan ko'ra omonlik tila!

Aqchagul. Nechuk yig'lamay. Sizning suyukligingiz Qalqonbek eshik og'asi. Jangu jadaldan. xavfu xatardan yiroq.

Saragul. Mening yorim saroybon bo'lsa, sening suyukliging Hazrat Sohibqironning qo'riqchisi!

Aqchagul. Koshkiydi janob Sohibqiron lashkar ortida yursa! Aytadilarkim, fotihi Muzaffar eng oldinda, eng xatarli joylarda ot surarmishlar!

Saragul. Qirq yil qyrg'in bo'lsa ajali yetgan o'ladi derlar! Yaratgan egam o'zi asragay barchasini!

Aqchagul. Opajon! Sabab? Sohibqiron Hazratlari bekamizni tashlab ketadurlar? Yo bekamdan sovib, boshqa bir malakka ko'ngul qo'yanlarmu?

Saragul. Bilmam, jonio, bilmam. Mana uch kundirki, sho'rlik bekam og'ziga ushoq olmaydur.

To'satdan daricha peshiga changak kelib tushadi-yu, arqonga tirmashgan Bosqonbekning boshi ko'rindi.

Aqchagul. Yo rab! Bosqonbek og'o?

Bosqonbek. (Bepisand) Assalomu alaykum, husnda benazir parivashlar. (Saragulga). Jon malikam! Qovog'ingizni uymay bul sanam ila bir daqiqa vidolashishga ijozat bergaysiz, bekam!

Saragul. Hozir bul go'shaga janob Sohibqiron Xazratlari qadam ranjida qiladurlar!

Bosqonbek. Janob Sohibqiron faqirni bul go'shada ko'rsalar boshingizdan oltin sochadurlar! (yolvorib) Bir daqiqa, bor yo'g'i bir daqiqa!

Saragul. Bir daqiqadan oshmag'ay! (chiqadi)

Bosqonbek. Qani, malagim, teskari burilmay janob Bosqonbekka qarasinlar! (Yuzidagi harir pardani ko'taradi va bir qadam chekinadi). Yo'q, Aqcha deganlari bekor, dinorsen, malagim, oltin dinor! (Quchadi).

Aqchagul. Sichqonga o'lim! Mushukka o'yin!

Bosqonbek. Sen sichqon, men mushuk? Bul so'zing rost bo'lsa, hozir bir yamlab yutadi! Art ko'zyoshyngni! Qirq yil qirg'in bo'lsa, ajal yetgan o'lador.

Saragul. Jon og'o! Ajal yetgan o'lador, deb o'zingizni o'tga ham, suvga ham urabermang! Ehtiyyot qiling o'zingizni, og'ojon?

Bosqonbek. (sochlarini silaydi). Sen-da! Senda ehtiyyot bo'l, gulyuzim!

Aqchagul. (Nozlanib) Meni qashqir yermu bul go'shada?

Bosqonbek. Shuni ham bilmaysen! Seni yemoq tugul bir yamlab oshab qo'yishga tayyor shoqollar ko'p bul saroyda, malagim!

Eshik sharakdab ochilib, ostonada qilich yalang'ochlangan ikki sipoh ko'rindi. Bosqonbek changak arqonga osilib, "Alvido, malagim! deganicha o'zini pastta otadi. Aqchagul o'zini o'ng qo'ldagi eshikkra uradi. Xonaga avval Saragul, keyin janob Sohibqiron bilan eshik og'osi Qalqonbek kiradilar. Sipohlar orqaga chekinadilar. Boshida eniga qadalgan dubulg'i, egnida qora kimxob kamzul, oyog'ida nagal qoqilgan qizil etik, Sohibqiron, garchi janob payg'ambar yoshidan oshgan bo'lsa ham, hali ellikka bormaganday, chehrasidan viqor va shiddat yog'ilib turgan sarvqomat yigitni eslatadi, faqat yurganida bilinar-bilinmas oqsaydi.

Sohibqiron. (Saragulga). Bibing qayda, puchuq?

Saragul. O'z xonasidadur, hazratim!

Sohibqiron. So'ra!

Saragul. Qulliq! (Qalqonbek bilan ikkisi ko'z urishtirib, jilmayishadi).

(Sohibqiron buni payqab). Hah shaytonlar. Loaqlan janob Sohibqiron huzurida odob saqlasalaring bo'lur erdi.

Saragul. Gunohkormen, hazratim! (chiqadi).

Qalqonbek. (Xijolatda). Yoshlik-g'o'rlik. Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz!

Sohibqiron. Bir qoshiq qoningni bo'lar-bo'lmasga isrof qilaberma! Jangu jadallarda o'zingga kerak bo'lur, qoning! Bor, ruxsat senga!

Qalqonbek. Hazratim, bir guruh savdogarlar tazim bajo keltirmoq azmida tashrif buyuribdurlar.

Sohibqiron. Kecha amirlar mashvaratda tijorat ahliga o'z tashakkurlarimni bayon etganmen? Tag'in ne istaklari bor erkan ularning?

Qalqonbek. O'shal tashakkurlaringizni eshitib, izhori ixlos bildirmoq matlabida kelibdurlar. Deydilarki, as-saloti zillallohi fil arz! Yaniki sultonimiz Ollo taolonning yerdagi soyasidur. Tag'in ne yordam darkor - aytsinlar. Hazratlarining farmoni amri vojibdur, deydilar!

Sohibqiron. (Keskin) Shakkok so'zlar! Faqir Olloning soyasi ermas, bandasimen. Ammo, modomiki yaxshi niyatda kelgan ekanlar, istagimni yetkaz: ortimdan yuz tuya qurol aslaho, ming tuya oziq-ovqat, o'n ming yilqi yuborsinlar. Lashkarim Hirot sarhadida bir oy dam olur! Kimki bul amrimni bajo etsa - zarbof to'nga musharrat bo'lur!

Qalqonbek. Yana bir so'z, olampanoh!

Sohibqiron. Bas! Bul toju taxt tashvishlaridan bir on halovat yo'q. Olis safar oldidan loaqlan bir daqiqa ixtiyorim o'zimda bo'lg'ay!

Bor, sen mug'ombir ham anov puchuq kanizning ko'nglini ol! (elkasiga qoqib) Balosen! Ichingdan pishgan ayyorsan! Ha darvoqe, Bibi Sardorga navkar yubor: bir kelib ketsun!

Qalqonbek. Bibi Sardor?

Sohibqiron. Eshik og'osi bo'lganingga bir oydin oshdi. Bibi Sardor kim hanuz bilmaysen! Haram bekasi! Bor!

Qalqonbek. Afv etgaysiz, davlatpanoh! (chiqadi).

Sohibqiron xayolga tolganicha xonani bir aylanib chiqadi, so'ng kamaridan shaqildog'ini olib, shaqillatadi. Saragul kirib, tazim qiladi.

Sohibqiron. Ha, shayton! Qaysi gunohlarim uchun men g'aribni bunchalar mahtal qilasen? Bibing chiqadimu yo ichkariga kirishga ijozat berasenmu?

Saragul. (O'yinqaroqlik bilan). Bir daqiqa sabr qilg'aysiz, Hazratim! Enangni ham otangga bepardoz ko'rsatma demish bobolarimiz.

Sohibqiron. Bibing biladi. Faqir pardozi-andozni xush ko'rmaymen!

Saragul. Shunday nozaninga ishq qo'yibsiz, uning nozini ham ko'tarasiz-da, olampanoh! (sho'x kulganicha g'oyib bo'ladi).

Sohibqiron. (miyig'ida kulib). Davo yo'q, bul ayol zotiga! Sen Fotih Muzaaffarmen deb kerilasan! Qabrg'adan yaralgan bul ayyor zot ersa senday fotihalarining minggini bir noz ila gah deb qo'liga qo'ndiradi!

Asta yurib daricha oldiga boradi. Nog'alarlar gumburi, otlar gupiri tingan. So'nayotgan shafaqda Ko'ksaroy poyidagi Samarqand: osmonga qo'l cho'zgan minoralar, masjidu-madrasalarining lojuvard gumbazlari boyagidan ham go'zal ko'rindi. Olsidan azon ovozi eshitiladi. Xufton namoziga chorlovchi bu ovoz kechki Samarqandga allaqanday osuda, tiniq bir xazinlik bag'ishlaydi.

Sohibqiron. Vo darig! Qandayin ko'rkm shahar bo'libdur, bul Samarqand! Qarab ko'zim to'yamadi senga! Jahongirlik qilib topg'on butun boyligim, olib kelgan barcha oltin va javohirlarimni sovurib, seni bunyod etibman, ammo nechog'lik go'zal shahar bo'libsen - O'zim ham bilmabmen!.. (Ko'kka tikilib ko'zlarini yumadi). E, parvardigori olam! Qirq yil bul osiy bandangdin inoyatingni darig' tutmading, umid qilamen, bundan keyin ham mehru shafqatingni darig' tutmassan. Shul elni deb, yurtim sarhadni bexatar bo'lsun deb, mana, bul mushkul safarga otlandim, ammo undan tirik qaytamannu, kindik qonim to'kilgan bul zamin, ne mashaqqatlar ila bunyod etg'on bul dorul-saltanatlari qayta ko'rmoq nasib etarmu, yo'qmu - O'zim ham bilmaymen!

Xosxonadan chiqqan Suluvko'z Sohibqironning bu so'zlarini eshitib, unga tomon talpinadi, yelkasidan quchib, tiz cho'kadi.

Suluvko'z. Amirim! Ollo qovushtirgan juftu halolim, yaratgan egam bu ko'nglingizga bul g'uluv, dilingizga bul shubhani solibdur, qo'ying bul xatarli yurishni!

Sohibqiron shitob bilan o'giriladi.

Sohibqiron. Suluvim! Ollodan tilab olgan duri-gavharim! Tur o'rningdan! Duri-gavhar yerda sochilib yotmas! (O'rnidan turg'azadi). Art ko'z yoshingni! Men bul oqshomni senga bag'ishlagani keldim. O'tinamen: visol oqshomimizni g'am-anduh oqshomiga aylantirma! Nechuk jamolingni mendin yashirasen! Och yuzingni, Suluvim, Suluvjonim!

Suluvko'z yuzidagi pardani jindek ko'taradi. Sohibqiron Suluvko'zning yuzini kaftlari orasiga oladi. Sohibqiron hayratla ko'kka boqadi.

Sohibqiron. Yo qudratingdan! Deydilarki, sen bandangni tuproqdin yaratmishsen! Ammo bul gul yanoq, bul qurulay ko'zlar, yoqut lablar ustidagi bul qora xo! Shakkoklik qilsam o'zing avf et, ammo ko'zni qamashtiruvchi bul benazir jamol!.. Yo'q, falagingdag'i yulduzlardan, quyoshdan yaratgansen, mening Suluvimni!

Suluvko'z (gina aralash erkalanib). Inonmaymen. Bir so'zingizga ham inonmaymen. Magar bul so'zlaringiz rost bo'lsa, baxtiqaro bibingizni tashlab ketmas edingiz, amirim!

Sohibqiron. Meni qiynamay, so'zimni eshit, suluvim! Bundan olti oy burun bir tush ko'rdim...

Suluvko'z. Tush?

Sohibqiron. Tushimda g'oyibdan sas kelmish. Quloq solsam... Jannatmakon piri murshidim Sayid Baraka ermiss. Ul zoti sharif aytadilarki, Ey, Sohibqiron! Birlamchi Ollohnning xohishi, ikkilamchi sening g'ayrat-shijoating ila barpo qilg'on qudratl davlating xatar ostida, demish. Xududsiz yurtingning mag'rib tomonida beti cho'tir, ko'zi so'qir bir sher paydo bo'lmiss. Ul sher sarhadingga hamla qilib, qudratl davlatingni yer ila yakson qilmoq rejasini tuzmish, dedi pirim!

Suluvko'z. Inondim. Tushingizga inondim, amirim. Birdan-bir tilagim: olib keting men sho'rlikni! Yoringiz bo'lmasam, cho'ringiz bo'lay. Otingiz bo'lmasa, yayov yuray! To'shagingiz yetmasa yantog'u tikonlar to'shagim bo'lg'ay!

Sohibqiron. (kulib) Meni bilasen?

Suluvko'z. Bilamen! (o'pkasi to'lib). Ajam qizlari sutday oppoq bo'lur ermiss!

Sohibqiron. (Qah-qah uradi). Ular sut bo'lsa, sen qaymoqsen, malagim!

Suluvko'z. Shom kelinchaklarining qomatlari sarv bo'larmish.

Sohibqiron. O, suluvjon, yo'l yiroq, yov yovuz. Bizni ne mashaqqatlar kutadur - sen tasavvur ham qilomaysen, malikam!

Suluvko'z. (Erkalanib). Daryongizning u yuzida ko'rinati bo'yleringizo, bo'yleringiz. Yo'lim yiroq, otim arriq, yetolmaymano, yetolmayman!

Sohibqiron. Ayt, yana bir ayt bul qo'shig'ingni.

Suluvko'z. (birdan ko'zları yonib) Yo'q, men bilamen, sizni bilamen!

Sohibqiron. (birdan qahri qo'zib). Bas! Men bu go'shaga bezovta xayollar kishanidan qutilib, sening quchog'ingda bir on orom olamen deb, taskin topamen, deb kelgan erdim, sen ersa... omon qol, omon bo'l! (Ketmoqchi bo'ladi, Suluvko'z darhol hushyor tortadi).

Suluvko'z. Ojizlik qildim, amirim! Bir safar avf eting, men sho'rlikni.

Sohibqiron. (Yana yumshab). Maying bormu?

Suluvko'z. (Hayron) May ichmas erdingiz?

Sohibqiron. Ichmagan bo'lsam ham bukun bir qultum ichmoq niyatida erdim. Sharbat ber (Suluvko'z bir piyola sharbat tutadi). Sening qo'lingdan ichilgan sharbat, may qattiq mast qilur meni! (piyolani ko'tarib) Bul judolikni ravo ko'rgan yaratgan egam visol kunini ham nasib etgay! (Ichadi. Murtini silab). Sabab yana visolingni yashirding?

Suluvko'zning boshidagi dur va javohirlar bilan bezalgan sallachasi va yuzidagi pardani yulib olib, bir chekkaga otib yuboradi va yelkasidan quchadi.

Sohibqiron. Yo rab! Go'shang charaqlab ketdi, oftobim! Izlay-izlay keksayganda, soql-murtimga qirov qo'nganda Ollo o'zi in'om etgan Suluvim, Suluvko'zim, Suluvjonim!

Suluvko'z. Yo'q, keksaydim degan so'z sizga yarashmas, amirim! Soql-murtimga qo'ngan bu qirov bebafo dur bo'lib ko'rinxur menin ko'zimga! Siz keksa ermas, bino bo'libsizki, hech kim jilovlay olmagan asov tulporsiz, amirim!

Sohibqiron. (yana qah-qah otib kuladi). Asov tulpor! Mana necha yildirki, bu tulporni jilovlab, ustiga minib yuribsenu, tag'in uni asov dersan!

Suluvko'z. Bul so'zingiz rost bo'lsa nechun olib ketmaysiz, bul ilonu chayonlar ichiga tashlab ketasiz?

Sohibqiron. Qaysi ilon? Qaysi chayonlarni aytasen?

Suluvko'z. Saroyingizda g'iybat, fisqi-fasod, haramingizda baxillik, hasad (birdan hushiga kelib) tavba qildim! Bu so'z og'zimdan qanday chiqdi - bilmay qoldim, avf eting, amirim!

Sohibqiron. Qani qaytgunimcha bir ilon tegib ko'rsin, bir chayon chaqib ko'rsin seni!

Suluvko'z. Mayli, boshqa so'zlamaymen, boshqa nolimaymen, biroq... Sizsiz o'tgan har bir daqiqqa ming yil bo'lur men sho'rlikka...

Sohibqiron. Buning ham chorasi bor, bibim!

Suluvko'zni quchib daricha oldiga olib boradi. Kechki Samarcand boyagidan ham go'zal, ulug'vor.

Sohibqiron. Yoshlig'imda niyat qilg'on erdim, bul shahri azimni jahonda eng ko'rkam, eng muazzam shahri-munavvar qiladurmen deb!

Suluvko'z. Niyatingizni yarattan egam o'zi qo'llabdur!

Sohibqiron. Endi anov hali bitmagan masjidi jomega qara! Uni qurib tugatmoqni senga yuklaymen!

Suluvko'z. Menday bir ojizaga?

Sohibqiron. Jahongshtalik qilib, buyog'i Hindu Xuroson, buyog'i Urusiyadan olib kelgan eng yaxshi memorlarim - sening izmu ixtiyorindan bo'lur. Bul yurishdan qaytg'onimda sening menga qiladurg'on eng katta tuhfang - mana shul masjidi jome bo'lmg'i darkor.

Suluvko'z. Yo parvardigor! Nahot bul masKjud kunlarga yetsam?

Sohibqiron. Inshoollo yetursen!

Eshik beruxsat ochilib, Bibi Sardor kiradi. Bu - elliklardan oshgan, ammo hanuz chiroyi saqlangan, Chingiziylarg'a xos g'ururi g'olib ayol. Uning boshida zar sochilgan qora-qirmizi ro'mol, egnida ham shu rang ko'yak, qo'lida qimmatbaho og'ir tasbeh.

Bibi Sardor. Bemavrid keldim, chog'i. Avf etgaysiz, olampanoh. So'rotg'on ekansiz...

Sohibqiron Suluvko'zga "ichkariga kirib tur dean manoda imo qiladi. Suluvqo'z itoatkorlik bilan o'z xonasiga kirib ketadi.

Sohibqiron. So'rag'on bo'lsmamda, so'rabs kirmog'ing darkor erdi, Bibi Sardor!

Bibi Sardor. Sizga ne bo'lidi, davlatpanoh? Birda yo'qlaysiz, birda do'qlaysiz? Bir so'roqlaysiz, bir so'roqsiz kirding, deb malomat qilursiz? Qaysi gunohlarim uchun bul haqorat, bul nadomat? Yo qirq yil qilingiz bo'lib xizmat qilmadimmu, yo Bibi Sardor Chingizxon avlodidan ekaninin yodingizdan chiqardingizmu, olampanoh?

Sohibqiron. Qaydagi iprindi-siprindi so'zlarni so'zlaysen! Keksalikka bo'yin egmay yosh sanamga rashk qilasen! Men seni bu yerga ayol zotining fisq-fasod so'zlarini muhokama qilmoq niyatida ermas, uzoq safar oldidan so'nggi irodamni izhor etmoq azmida yo'qladim!

Bibi Sardor. (Darhol shashtidan tushib). Amringizga muntazirmen, shahriyori falak iqtidor!

Sohibqiron. Birlamchi, haramdag'i barcha kanizlar, xoh istasin, xoh istamasin, men shul yosh sanamni deganim degan, suyganim suygan! Mabodo... biror noxush ish bo'lib, uning loaqlar kiprigi tushsa... boshing ketadur, Bibi Sardor!

Bibi Sardor. So'zingizni angladim, hazratim!

Sohibqiron. Ikkilamchi hukmmim shulkim, anov masjidi jome qurilishini va bu qurilishga bog'liq barcha yumushlarni shul bibiga yukladim...

Bibi Sardor. (Hayratda). Masjidi jome qurilishini og'zidan ona suti ketmagan shul noraso go'dakka yukladizingiz? (alamdan qovurilib) Olampanoh! Qaysi gunohlarim uchun bul ko'rgulik? Qirq yillik sadoqati zohir cho'ringiz turib, ne-ne uddaburon arkoni davlat qolib, bul mushkul yumushni... Kecha topgan subutsiz sanamingizga topshirasiz?

Sohibqiron. Bas! Janob Sohibqiron, Amir Temur Ko'ragoni farmoni mubohasa va muhokama qilinmaydur!

Bibi Sardor. E, yaratgan egam! Qarigan chog'imda bul ne haqorat, ne qismatlarni ravo ko'rding men baxti qaroga!

Sohibqiron. Kalomim tamom. Senga ruxsat, Bibi Sardor!

Chiroq o'chib, zum o'tmay, shamlar yonadi, g'ira-shira qorong'ulikda harir parda bilan to'silgan qo'sh naqshinkor so'ri ko'zga chalinadi. Parda yonida boyagi libosini kiyib, qilich taqilgan kamarini bog'layotgan Sohibqiron. To'satdan yana nog'oralar gumburlaydi, otlar kishnaydi, fillar nara tortadi. Parda ichidan Suluvko'zning zorli ovozi keladi: "Qaydasiz, amirim? Nahot tong otdi? Nahot bir oniy visol chog'imiz tugadi?

Suluvko'z parda ichidan chiqadi. Egnida zar sochilgan harir ko'yak, parishon sochlari to'pig'iga tegadi.

Sohibqiron. Ha, tong otdi, judolik damlari keldi, Suluvim!

Suluvko'z. Judolik! Nahot sho'rlik bibingizni chindanda tashlab ketasiz, amirim?

Sohibqiron. Olloga topshirdim seni...

Suluvko'z. Men ham Sizni Olloga topshirdim, amirim. Oy borib, omon qaytgaysiz, yo'lbarsim, asov tulporim! (tobora holsizlanib) Olloga topshirdim, Olloga topshirdim!..

Parda

Ikkinch'i ko'rinish

Ko'r kam tog' yonbag'riga tikilgan ulkan saroparda. Saropardaning bir tomoni baland ko'tarilgan. Pastda go'zal manzara: uzoqda archazor cho'qqilar, yaqinroqdag'i qir va adirlarga o'tovlar, chog'roq chodirlar tikilgan, o'tlab yurgan yilqilar, tuyalar, ot o'ynatib yurgan suvoriylar elas-elas ko'zga chalinadi. Bot-bot ular dupuri, ayg'irlar kishnashi, qurol-aslaha yasayotgan aslahasozlarning taraq-turug'i eshitiladi. Qirmizi gilamlar to'shalgan saropardaning to'rida yo'lbars terisi yopilgan baland, oltin kursi. Yenida qator kichik kursilar. O'ng tomonda sakkiz qirrali naqshinkor xontaxta. Uning ustida bir dasta ipak qog'oz, qalam, sharbat solingan idishlar. Shohi ko'r pachada soqol-mo'ylovlar chiroyli qirtishlangan saroy muarixi o'ltiribdi. Eshik og'osi Qalqonbek, qo'llarini orqasiga qilganicha u yoqdan bu yoqqa yurib, farmoni oliy yozdirmoqda.

Qalqonbek. Janob Mavlono! Olampanoh bul farmoni oliyni devon mirzolariga ermas, Sizga yozdirishni istardilarkim, ehtimol yozadurg'on kitobingizga kiradur.

Muarrix. Tashakkur.

Qalqonbek. Ammo hozircha bu farmon sir saqlanmog'i darkor.

Muarrix. Angladim, janob saroybon.

Qalqonbek. Farmoni oliyning boshini o'zingiz o'xshatursiz.

Muarrix. Xotirjam bo'lg'aysiz, ko'nglingiz to'lador.

Qalqonbek. Kamina ermas, Sohibqiron hazratlarining ko'ngillari to'lmosh'i darkor.

Muarrix. Inshoollo shunday bo'lur.

Qalqonbek. Farmoni Oliyning mazmuni shulkim, so'nggi kunlarda janobi Sohibqiron hududidagi barcha viloyat, muzofot va shahar beklaridan keladurg'on nomalar muddati buzilmoqda. Bekat va rabot nozirlari chopar va ayg'oqchilarga yaxshi ulov berishdan bosh tortish hollari sodir bo'lmoqda. Boz ustiga Qorabog', Mashhad, Nishapur sarhadlarida uya qo'yg'on qaroqchilar va yo'lto'sarlar maxsus choparlar joniga qasd qilib, olib kelayotg'on nomalarini, hatto xurjunlaridagi aqchalarini tunab ketmoqdalarim, bunga sira toqat qilib bo'lmas!

Muarrix. (Boshini chayqab). Filhaqiqat, chidab bo'lmaydurg'on bir hol!

Qalqonbek. (Betoqat). Davlatpanoh Sohibqiron hazratlari amr qiladurlar: ushbu farmoni oliy yetib borg'on kundan boshlab hudsiz davlatimizdag'i barcha bekat va rabot nozirlari choparlar va ayg'oqchilar uchun eng sara otlar, eng tez chopar yuguruk tuyalarni shay qilib qo'ysunlar! Qaysi mintaqada bul amrni olib vojib bo'lmay, yo'lto'sar va qaroqchilarga erk berilsa, faqat bekat va rabot nozirlari ermas, viloyat va muzofat beklariningda soyalari birla kallalari ham ketadur!

Muarrix. Yopiray, Janob Sohibqiron yomon darg'azab bo'libdilar-da!

Qalqonbek. O'zi darg'azab bo'ladurg'on ishlarda bu!

Chodirning so'ng qanotidagi parda ochiladi va yasovul kirib tazim qiladi:

Ya s o v u l. Ikki sipoh bugungi ovdan o'lja keltirdilar.

Qalqonbek. Ayt, kirsinlar!

Yasovul chiqadi, chodirga qop orqalagan ikki sipoh kirib, qoplarni yerga tashlashadi.

Qalqonbek. (Xushnud). Bugungi shikor omadli bo'libdurda, bundan chiqdi.

B i r i n ch i s i p o h. Omadliki, Sohibqiron hazratlarining bir o'zlarini salkam yuz kaklik otdilar!

I k k i n ch i s i p o h. Qoplanni ayt, qoplanni!

Qalqonbek. Qoplon?

B i r i n ch i s i p o h. Qoplonki, sherdan katta!

Muarrix. Ofarin, ofarin!

I k k i n ch i s i p o h. Sohibqiron hazratlari bu qoplardagi kakliklarni bu kun keladurg'on Sulton Boyazid dasturxoniga tortishni buyuribdurlar!

Qalqonbek. Bakovullarga elting! Parlarini yulib, qovurdoq qilsunlar! (Muarrixga). Bu g'aroyib hodisani daftaringizning bir chetiga turtib qo'ying. Tarixga kirsa arziydur. Mavlono!

Muarrix. Filhaqiqat, arziydur, janob Saroybon.

Ot kishnaydi, yasovul kirib, tazim qiladi.

Ya s o v u l. Darussaltanatdan chopar kelmish!

Qalqonbek. Xayriyat! So'ra!

Chopar kirib, tazim bajo keltiradi. Yuzida niqob, boshida choparlik nishoni qadalgan telpak.

Qalqonbek. (Keskin). Noma!

Ch o p a r. Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, janob eshik og'asi. Nomai Muborak - maxfiydir. Uni Sohibqiron hazratlarining o'zlariga topshirmoqqa so'z bergenman.

Qalqonbek. (Darg'azab). Janob Sohibqiron - ovdalar! Bul qanday nomaki, uning mazmuni davlatpanoh inongan eshik og'asidan sir saqlanur. Cho'z nomani!

Ch o p a r. Avf etgaysiz, to'ram... Noma telpagim ichiga yashirilgandur.

Qalqonbek. Ol telpagingni, nobakor!

Ch o p a r. Kechirgaysiz, janob saroybon, boshim kaldur!

Qalqonbek. Boshing qo'tur, beting cho'tur, ammo tiling burro! Qachon, qay elda eshitganmen sen to'nqushning ovozini?

Choparning boshidagi telpagi, yuzidagi niqobini sharhta yulib oladi. Saragul yuzini kaftlari orasiga yashiradi.

Qalqonbek. (Bir qadam tisarilib). Saragul! Yo rab! Tushimmu bu yo o'ngimmu?

Saragul. Yarattan egamga ming shukur. Sizni ko'radyr' on kun ham bor erkan!

Qalqonbek tomon talpinadi-yu, muarrixga qarab, o'zini tiyadi. Buni sezgan muarrix sal teskari burilib go'yo o'z ishi bilan band bo'ladi.

Saragul. Olloga shukur, diydoringizni ko'rmoq nasib etdi, nasib etdi.

Tiz cho'kmoqchi bo'ladi, Qalqonbek uni ushlab qoladi.

Qalqonbek. (Quchadi, sochlarini silaydi). Olloga shukur, Olloga shukur!

Saragul. Sizni bir ko'rmoq umidida uch hafta ot surdum. Sizlar yuribsiz bu yot ellarda g'alaba nashidasidan mast bo'lib, biz ersa... biz sho'rliklar ersa yotibmiz qon yig'lab.

Qalqonbek. Sabab qon yig'laysanlar?

Saragul. Nechun qon yig'lamaylik? Saroyda ig'vo, haramda fisqu-fujur! G'iybat! Sizlar inongan mulozimlar - bari ilonning yog'ini yalagan tulkilar. Bari Sardorning ayg'oqchilari! Sho'rlik Bibim ikki o't orasida kuyib kul bo'lmiss. Jomeni bitirib, janob Sohibqironga in'om etmoq azmida ish qilsa-chi, ichi qora hasadgo'ylar yo'l qo'ymasa, bitirmasa - Fotihi Muzaffar g'azabiga duchor bo'lса!

Qalqonbek. (Qahri ko'zib). Uch hafta tunu-kun ot surib kelg'oningda hazrat Sohibqironga topib kelg'on xushxabaring shul bo'ldimi?

Saragul. Boshqa chora topilmasa ne qilayin? Baxtiqaro Bibim boshiga behisob tuhmatlar yog'ilsa ne qilaylik?

Qalqonbek. Ne tuhmat? O'pkangni bosib, oshkora so'zla!

Saragul. (Ko'z yoshi aralash). Ermishki... go'yo... go'yo masjidi jomening memori Bibimga izhori ixlos qilgan ermish...

Qalqonbek. (Keskin). Izhori ixlosmu yo ishqu-muhabbatmu?

Saragul. Bari bo'hton, bari mish-mish!

Qalqonbek. Shamol bo'lmasa terakning uchi qimirlamas!

Saragul. Sho'rlik bibim!

Qalqonbek. Sho'rlikmu, yo'qmu, ammo mashriqdan mag'ribga ot surib olib kelgan matohing shul g'alamis nomamu? (Qo'lidagi telpakni yumdalab-yirtib, ichidan nomani oladi va unga ko'z yogurtiradi). Yo'q, bul nomani Olampanohga ko'rsatib bo'lmas!

Hazratlarining boshida ming bir tashvish, g'urbat, uzlusiz jangu-jadal, sening bibing ersa... janob Sohibqiron hazratlarini yuragini qon qiladurg'on chirkin nomalar yo'llaydur! (To'satdan muarrix tomon burilib) Mavlono! Bul chopar bul g'alamis nomani keltirmadi, siz ila biz uni ko'rmaduk!

Muarrix. Nadomatlar bo'lg'aykim, siz ila biz ko'rmasakda, qalam-qog'oz ko'rdi, binobarin, qog'ozga tushmay qolmas! Zero, qog'ozga tushgan so'zni qilich ham kesa olmas!

Qalqonbek. Boshqalarning qilichini bilmaymen, ammo Qalqonbekning qilichi kesadur!

Ularning bahsini katta olomonning hayqirig'i bo'ladi, keyin birdan otlar dupuri eshitiladi.

Qalqonbek. Sohibqiron ovdan qaytmoqdadur! (Saragulga) Sen buyoqdagi o'tovga o'tib o'ltur. Ammo birov ko'rmasun, uning chiqmasun!

Saragul. Og'ajon. Quloq soling, og'ajon.

Qalqonbek. Bas! Qolgan so'zni keyin so'zlashurmiz! Ma, boshingga qalpog'ingni, yuzingga niqobingni kiy!

Chodirga shitob bilan Yasovul kiradi.

Ya s o v u l. Bosqonbekni olib kelduk. Qattiq jarohatlang'on. Qayga joylashamiz?

Qalqonbek. Qattiq jarohatlangan? Qay joyda? Qachon? Sabab?

Ya s o v u l. Ov bo'layotg'on darada bir mal'un Sohibqiron hazratlarining joniga qasd qilmoq azmida soy bo'yidagi chinor tepasiga yashirinib olg'on erkan. Kamondan o'q uzayotg'onda Bosqonbek botur ko'rib qolib, o'qqa o'z ko'ksini tutmish.

Saragul. Yo tangrim! Bechora Aqchagul!

Ya s o v u l. Janob Sohibqironga shikast yetmabdur, ammo Bosqonbek boturning ahvoli og'ir! Qayga joylashamiz.

Qalqonbek. Oq o'tovga! Gilamlar to'shang. Hakimi azamni oldiring! Darhol.

Ikki sipoh oq kigizda Bosqonbekni ko'tarib kiradilar.

Bosqonbek. Suv! Bir qoshiq suv!

Qalqonbek. (Shaqildog'imi shaqillatib). Suv! Sharbat!.

Saragul (Tiz cho'kib). Inijonim! Senga ne bo'ldi, inijonim.

Bosqonbek. Saragul? (Alahsirab) Qaydamiz? Dorussaltanatga qaytdikmu? Qaytgan bo'lsak... Aqchagul qayda, opajon? Chaqiring uni, chaqiring!

Qalqonbek. (Saragulga o'shqiradi) O'tovga chiq dedim senga! Chiq darhol!

Saragul ko'z yoshlarini artganicha chodirdan chiqadi, Yasovul kosada suv olib kiradi, Bosqonbek suv ichib atrofiga olazarak qaraydi.

Bosqonbek. Qayga keldik? Qarorgohmu bu? Qalqonbek? Og'ojon!

Qalqonbek. Qarorgoh, bovrim! (O'pkasi to'lib) Inijonim, bovrim! Hozir tabiblar yetib keladur! Ollo shifo bersa otday bo'lib ketursan, ini-jonim. (Yasovullar) Oq o'tovga!

Bosqonbek. To'xta, og'ajon! To'xtanglar! Sohibqiron hazratlariga so'zim bor, tilagim bor!

Qalqonbek. Sabr qil, bovrim, sabr qil...

Hamma chiqadi, bo'sag'ada yolg'iz yasovul qoladi. Ovloqdan kelayotgan hayqiriq va nog'oralar gumbiri kuchayadi. Otlar kishnaydi. Chodirga ikki yonida ikki sipoh Shohruh Mirzo kiradi, sipohlar chekinishadi...

Sh o h r u h. Eshik og'asi qayda?

Ya s o v u l. Hakimlar qoshida, shahzodai juvon-baxt!

Sh o h r u h. Yo'qla!

Yasovul chiqadi, Shohruh Mirzo qibлага yuzlanib, qo'llarini ochadi.

E, parvardigori olam! Mana, salkam ellik yildirki padari buzrukvorimizdan mehru shafqatingni darig' tutmading. Bukun yana inoyatingni darig' tutmay, ajal balosidan asrab qolding. Senga sanoqsiz hamdlar aytib, shukrona qilamiz!

Yuziga fotiha tortadi. Chodirga boshqa bir yasovul kirib, tazim qiladi.

Ya s o v u l. Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoni hazratlariga izhori ixlos qilmoq matlabida Sulton Boyazid janoblari tashrif buyurmish.

Sh o h r u h. Sulton ermas, toju taxtidan mosuvo bo'lgon bir g'urobo! Tashrif buyurg'on ermish! Tashrif ermas, to'rt oyoqlab emaklab kelmog'i darkor erdi, ul battol! G'ururini jilovlab, taqdir azalga tan bermoq o'rniha hanuz janob Sohibqiron joniga qasd qilmoq rejasini tuzadur ul iblisi layin! Sohibqiron haz-ratlarni kutmoq darkor. Ungacha anov qora uyga joyla ul makkorni!

Tashqarida ko'p otlar kishnaydi. Chodirga qilich yalang'ochlagan bir guruh sipohlar qurshovida Sohibqiron hazratlari bilan shayx Nuriddin va amir Barlostegin kiradilar. Sipohlar chekinadilar.

O'tgan fursatda sohibqiron deyarli o'zgarmagan, ehtimol soqol-murtidagi oq tolalar sal ko'paygandir, ammo gap-so'zlarida, harakatlarida o'sha shiddat, o'sha qat'iyat. Oq o'tov tamondan Qalqonbek kirib, tazim bajoo keltiradi.

Sohibqiron. (Keskin). Nechun gungsan, eshik og'osi? So'zla!

Qalqonbek. Bovrimning ahvoli nochor, davlatpanoh!

Sohibqiron. Hakimlar ne deydi?

Qalqonbek. Hakimlarda zabon yo'q, muolaja ila bandlar, olampanoh.

Sohibqiron. Yo'qla uni!

Qalqonbek chiqadi. Hamma sukutda bosh eggan.

Muarrix (jur'atsizgina tamoq qirib). Yaratgan egamning shafoati cheksiz, davlatpanoh. Inshoollo shifo topadur.

H a m m a. Inshoollo, inshoollo!

Sohibqiron. Iloyo aytganingiz kelgay, mavlono! Bu sher-yurak o'g'lon faqirga jonini beradurg'on bir er erdi, o'z farzandi arjumandlarim qanday qalqon bo'lsa, shunday qalqon erdi!

Sh o h r u h. Biz ham uni o'z tug'ushqon inimiz, deb bilur erdik, valinem!

Qalqonbek bilan hakimi azam kirib, tazim qiladilar.

Sukut.

Sohibqiron. (Qahri kelib). Zaboning bormu yo tiling kesilganmu, hakimi azam? (shivirlab). Botirim tirikmu yo...

Hakimiazam. Shul daqiqada tirik, olampanoh, ammo...

Sohibqiron. So'zla!

Hakimiazam. Umidimiz Ollohdan, davlatpanoh!

Sohibqiron. Yaratgan egam... saqlanganni... saqlaganni saqlayman degan. Botirimni saqlamoq sening gardaningda, hakimi azam.

Bor, qilaver muolajangni!.. Ammo... xato qilako'rma! So'zim ayonmu, hakim?

Hakimiazam. Ayon, hazratim...

Qalqonbek ikkovi chiqadilar. Sukut. Sohibqiron u yoqdan bu yoqqa darg'azab aylanadi.

Sohibqiron. (To'satdan to'xtab). O'g'lim Shohruh!

Sh o h r u h. Labbay valinem!

Sohibqiron. Sen o'z poytaxting Hirotg'a qaytmoq taraddudini ko'raber.

Sh o h r u h. Qachon, buzrukvor?

Sohibqiron. Darhol. Erta tong yo'lga chiqmog'ing darkor... Shayx Nuriddin hazratlari!

Shayx Nuriddin. Qulog'im Sizdadur, Olampanoh.

Sohibqiron. Siz dorussaltana Samarqandga yo'l olursiz! Siz amir Borlos tegin, Ajam orqali Qorabog'ga, Qorabog'dan Jurjon shahri orqali Turkmanlar yurtiga, undan Balxga o'tirsiz!

Amir Barlos. Bosh ustiga!

Shayx Nuriddin. Siz hazratimning so'zları - bizday sadoqati zohir qullaringiz uchun amri xudodir!

Sohibqiron. Har biringiz qancha suvoriy, qancha quroslashta, qancha oziq-ovqat darkor bo'lsa - olingiz!

A m i r B o r l o s v a Shayx Nuriddin (baravariga). Tashakkur, olampanoh!..

Sohibqiron. Tag'in ne kerak - olinglar. Ammo yo'l-yo'lakay hududim ichida paydo bo'lgon barcha qaroqchilar, bebob tovlamachilar, choparlar va ayg'ocqchilarimiz joniga qasd qilayotg'on barcha kallakesarlarning payini qirqib, toki men qaytguncha yurtda osoyishitalik o'rnatmoqlarining darkor! Darvoqe, men aytg'on farmoni oliy tayyormu, mavlono!

Muarrix. Tayyor, tayyor, olampanoh!

Sohibqiron. Tayyor bo'lsa bul zoti shariflarga bir nusxdadan obergaysiz. Bul farmonni Sizlarga bergan cheksiz vakolatim deb

6 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

bilursizlar!

Sh o h r u h. Valinemat!

Sohibqiron. Xo'sh?

Sh o h r u h. Men Sizni bu yerda, g'animlar orasida yolg'iz tashlab ketolmasmen.

Sohibqiron. Faqirni bo'ri yemas. Qirq yil qirg'inda asragan yaratgan egam, inshoollo bundan keyin ham asrar!

Sh o h r u h. Axir mening Hirotimda osoyishtalik!

Sohibqiron. Hirot osoyishta bo'lsa Mashhad notinch! Og'ang Mironshoh davlat yumushlarini yig'ishtirib qo'yib, fahsh va aysh-ishratga mukkasidan ketib, o'z qusug'iga o'zi belanib yotgan ermish! Borib ko'r: xufyalarim yetkargan bu xabar rost bo'lsa... menga darhol chopar yo'lllaysen!

Qalqonbek kirib, bosh egadi.

Qalqonbek. Davlatpanoh, Farangistondan zlchilar kelmish. Yuz xachir sovg'a-salom va farang qirolining yorlig'ini keltirmishlar.

Sohibqiron. Yo'q, farang elchilari navbat kutgay. Avval Sulton Boyazidga yo'l ber! (Chodirdagilarga) Sizlarga ijozat! Safar hozirlig'ini ko'rgaysizlar! (Muarrixga) Siz qoling, mavlono. Suhbatimizni yozib olmog'ingiz darkor!

Muarrix bosh egadi. Boshqalar chiqadi, Qalqonbek kiradi.

Qalqonbek. Janob Sulton Boyazid bir guruh nadimlari ila ijozatingizga muntazirdur!

Sohibqiron. Sultonni taklif et! Nadimlari qolsun. Suhbatimiz yuzma-yuz, beguvoh bo'lmog'i darkor!

Qalqonbek chiqadi. Sulton Boyazid kirib bosh egadi. Ustida jo'ngina qora chakmon, boshida kulohsimon qalpoq.

Sohibqiron. Marhamat, to'rga o'tsinlar, janob Sulton.

Boyazid. Tashakkur! Faqir endilikda sulton ermas, Sizday muzaffarning mag'lub bir qulidurman!

Sohibqiron. Takabburlik qilmay yuqori o't! Bukun kaminaning aziz memoni bo'lurseen.

Boyazid. Qulliq! Bukun Sizday amiri mo'minining mehmoni bo'lmoq na ko'nglimga sig'adur, na martabam ko'taradur buni!

Sohibqiron. Sabab?

Boyazid. Sababi... Shul bukun subhi sodiq tush ko'ribmen, janob Sohibqiron.

Sohibqiron. Tush? Ne tush?

Boyazid. Faqir haqir... Sizning muzaffar lashkarlingiz yengilmas yanicharlarim ustidan g'olib chiqqan kuni men o'lim tilab yaratgan egamga iltijo qilg'on erdim. Mening iltijom arshi aloga yetib boribdur. Bukun subhi kazzob Hazrat Azroyil alayhissalom o'z farishtalari qurshovida faqir kulbamga qadam ranjida qildilar. Men sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy hazratlarig'a aytadurg'on kalima bor deb, Hazrat Jabroil alayhissalomdan bir kunga ijozat so'radum.

Sohibqiron. O'zing to'qigan cho'pchakmu bu yo haqiqatmu?

Boyazid. Bas! Faqir bukun bul o'tkinchi makonda bor, ertaga yo'qmen. Umid qilamanki, go'r yoqasida turg'on bandai ojizni bir og'iz so'zdan mosuvo etmaysiz, amiral mo'minin!

Sohibqiron. Yo'q, mosuvo qilmaymen, ammo ko'nglingdagi zahringni ham, aytadurg'on kalomingni ham yaxshi bilurmen, Yildirim!

Boyazid. Yaxshi bilursiz?

Sohibqiron. Bilurmen. Sen izhori ixlos qilmoq ermas, malomat toshlarini yog'dirmoq azmida kelgansen, huzurimga...

Boyazid. Astofurullo!

Sohibqiron. Kaloming shulkim, men, kimsan Sulton Boyazid butkul turk olamini mag'rib g'ayridinlaridan asrab o'ttada qolqon bo'lib turg'on erdim, sen ersa meni toru-mor qilib, g'animlarimizga yo'l ochib berding, demoqchisan sen!

Boyazid. Yo bu so'zim haqiqat ermasmu, Sohibqiron? Mag'ribda qilich yalang'ochlab turg'on yovlaringizga yo'l ochmadingizmu? Mashrikda Urusiyaga qarshi ko'krak kerib turg'on To'xtamishxonni yer birlan yakson qilib...

Sohibqiron. (Qaltirab). Bas, ul munofiqdin so'z ochib, eski yaramni tirnama. Yildirim! Padari buzrukrori olamdan o'tib, yetim qolganida uning boshini silab, talim-tarbiya qilib, otasi taxtiga o'tqazgan kim? Amir Temur Ko'ragoniy emasnu?

Boyazid. Amir Temur Ko'ragoniy, ammo...

Sohibqiron. Ko'ragoniy bo'lsa, nechun bul malomat? Mag'ribdag'i g'animlarimga qarshi qalqon bo'lib turg'on erdim deb ko'krak kerasen, ammo yolg'iz ko'zingni mag'ribga ermas, mashriqqa qadaysen? Mening sarhadimg'a tahdid solasen! Kamina seni ko'zi ko'r bir faqir desam, diling ham ko'r erkan, Boyazid!

Boyazid. Faqirni avf etgaysiz, hazratim. Meni ko'r qilib yaratgan egam, sizni ham cho'loq qilib yaratibdur.

Sohibqiron. Ha parvardigori olam, bu dunyo taqdirini bir ko'r, bir cho'loqqa topshiribdur. Ammo bu kun menga bir haqiqat ayon bo'ldi: ko'r bo'lg'ondan, cho'loq bo'lg'on afzal erkan! Tag'in ne arzing bor - so'zla, Yildirim!

Boyazid. Yo'q, senga aytadurg'on boshqa kalomim yo'q. Birdan-bir nasihatim: men basir bu dunyog'a ustun bo'lurman deb o'ylog'on erdim - bo'lolmadim. Sen cho'loq ham ustun bo'lomlaysen (chiqa boshlaydi).

Sohibqiron. (Kesatib). Dono nasihat! Kamina bul haqiqatni bilmas erkanmen, ko'zimni och-ding, tashakkur, Yildirim. (Boyazid chiqadi).

Muarrix. O, bani odam! Otdan tushsa-da, egardan tushmas, bani odam!

A m i r. Mayli. Mag'lub alamzada, g'olib kechirimli bo'lmog'i darkor! Suhbatni oqizmay-tomizmay bitdingizmu daftaringizga?

Muarrix. Bitdim. Hammasini bitdim, olampanoh.

Sohibqiron. Barakallo! Bo'lg'usi avlodlar bor haqiqatni bilmog'lari darkor, Mavlono!

O'tov tomondan: "Inim! Sheryurak inijonim! degan faryod eshitilar. Chodirga sochlari yozilgan yoqasi choc Saragul bilan uni to'xtatib qolishga urinayotgan Qalqonbek kirib kelishadi. Saragul yig'laganicha o'zini Sohibqironning oyoqlari ostiga tashlaydi. Saragul. Sheryurak burgutingiz Bosqonbek olamdan ko'z yumdi, davlatpanoh. Ko'z yumdi. Baxtiqaro Aqchagul! Sho'r peshona singilginam!

Sohibqiron. (Hayratda). Saragul? Sen qanday, qachon kelding? (javob kutmay) Hakimi azam qayda?

Qalqonbek. Yo'qlaymu!

Sohibqiron. Yo'q! Bari Ollohdan. Yaratgan egamning xohishi shul erkan. O'z jannatidan joy ato qilg'ay! (Qalqonbekka). Dafn taraddudini ko'ringlar! (Yuziga fotiha tortadi. Saragulni o'rnidan turg'izadi). Sen qachon kelding bu maskanga?

Saragul. (Hiqillab). Shu bukun, Olampanoh.

Sohibqiron. Sabab?

Saragul. Bekam! Sho'rlik bekam!

Sohibqiron. Sho'rlik? Sabab sho'rlik bo'lur?

Saragul. Saroyda g'iybat, fisqu-fasod, tuhmat!

Sohibqiron. (g'azabi jo'shib). Chaynalmay so'zla! Ne g'iybat, ne tuhmat? Kim qiladur bu tuhmatni?

Saragul. Saroy arkonlari... Haram bekalar...

Sohibqiron. So'zla! Chaynalmay so'zla dedim senga!

Saragul. Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, hazratim. Ul tuban kimsalarning tuban so'zlarini aytmoqqa tilim bormas!

Sohibqiron. Yo so'zla, yo tiling kesilur!

Saragul. So'zlasam... emishki, bibim, sutday oq, musichaday uvol bibim... emishki... masjidi jome memorining tuzog'iga ilinmish...

Sohibqiron. Tuzoq? Ne tuzoq?

Saragul. Mu... mu... muhabbat tuzog'i!

Sohibqiron. Him... Bibim?.. Kimsan Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniyning xasmi... qayoqdagi bir qalang'i-qasang'iga ishqilish?

Saragul (nola qiladi). Yolg'on! Hammasi bo'hton, hammasi tuhmat, Olampanoh.

Sohibqiron (g'azabi junbushga kelib). Bibi Sardor qay go'rda yuribduri?

Saragul. Nadomatlar... nadomatlar bo'lgaykim, Bibi Sardor ham o'shal tuhmatchilar yonini olmish!..

Sohibqiron (alam bilan, ammo sekin). Bilg'on erdim... Shunday bo'lismi bilg'on erdim (baqirib). Daf bo'l ko'zimdin!

(Saragul chikadi).

Sohibqiron (go'yo o'ziga o'zi) Bilg'on erdim, hammasini bilg'on erdim! (ojizona). O, bibim, bibijonim! Keksayg'onda topgan durri gavharim!.. Men senga intilg'on erdim, xuddi o'zimg'a inong'onday inong'on erdim!..

Muarrix (jur'atsizgina). Hukm chiqarmoqqa shoshilmang, davlatpanoh. Shoyad bul kanizak aytg'anday tuhmat bo'lsa, bari bo'hton bo'lsa.

Sohibqiron (engil tortib). Shoyad! Darvoqe shayx Nuriddinning qo'liga farmon yozib bermoq darkor. Toki borg'unimga qadar Suluvko'z bibiga hech bir kimsa tegmagay! O'zim qilurmen haqiqatni, o'zim!

Parda

Ikkinchchi parda

Uchinchi ko'rinish

Ko'ksaroy. Sahna ikkiga bo'lingan. O'ng tamonda Suluvko'zning xonasi, chap tamonda yaxshi jihozlangan charog'on mehmonxonasi. Suluvko'zning xonasi nimqorong'i. Tokchalarda bir-ikkitagina sham miltirab turibdi. To'rdagi baland to'shakda, nozik parda ortida Suluvko'z yotibdi. Tashqaridan qo'lida barkash, Saragul kiradi va mehmonxonadan o'tib, Suluvko'zning xonasiga kiradi.

Suluvko'z. Aqchagul? Qayda yuribsen?

Saragul. Yo'q, bul men...

Suluvko'z. Aqchagul qayda?

Saragul. Aqchagulni Bibi Sardor birla Shayx Nuriddin yo'qlabdurlar.

Suluvko'z behalovat bo'lib boshini yostiqdan ko'taradi.

Suluvko'z. Yo xudoyim! Bul hazrat Samarcandga kelibdurki, Aqchagulni har kuni yo'qlagani yo'qlagan. Sabab seni chorlamaydur? Ularga ayg'oqchilik qilib, sir tashib yuribdi sening singling!

Saragul. Y-yo'q! Unday demang, bibijon! Suyukli yori Bosqonbek rahmatlik bo'libdurki, telbalanib qoldi sho'rlik singlim. Uning hushi o'zida ermas, bibim.

Suluvko'z. Qaydamov, Saragul. Baribir niyatları yomonov bularning!

Saragul. Qo'rqmang, bibim. Niyatları yomon bo'lsun, bo'lmasun, Siz Olloq qovushtirgan yoringiz janob Sohibqiron oldida sutday oq, farishtaday begunohsiz!

Suluvko'z. Ha, yaratgan egam shohid! O'zi qo'shg'on xo'jam oldida tariqday gunohim yo'q. Biroq bul ichi qora shumniyatlar tarqatgan g'iybatlar, tuhmatlar, bular qo'ygan tuzoqlar!..

Saragul. Bular bir ermas, ming tuzoq qo'ymasunlar sizning harom tukingizga ham tegolmaydurlar. Eshik og'asi Qalqonbek inim aytdilar: farmoni Humoyun shunday ermish!

Suluvko'z hayajondan o'rnidan turib ketadi.

Suluvko'z. Ha, ha, shundan so'zla! Boshqa barcha so'zni qo'yib, shundan so'zla, jonim Saragul!

Saragul. Ming marotaba so'zladim...

Suluvko'z. Ming tugul, yuz ming marotaba aystsang ham jon qulog'im ila eshitaman. Saragul, so'zla, jonginam!

Saragul. Qalqonbek inim aytmissiz. Farmoni Humoyunda bitilgan ermishkim, janob Sohibqiron dorussaltanaga qaytgach, o'zlar haqiqat qilur ermush! Ungacha Sizni birov ranjitmoq u yoqda tursin bir og'iz yomon so'z aytimasun!.. Olampanoh yo'lga chiqqanidan xabaringiz bor. Xudo xohlasa erta-buruskun yetib keladur!

Suluvko'z. (Tahlikaga tushib). Erta-buruskun?

Saragul. Uch-turt kun burun Keshga kelib, yurtga osh bermoq niyatida Oqsaroya qo'ng'on emishlar. Kecha osh berib yo'lga chiqqon bo'lsalar shul subhidam kelib qolurlar.

Suluvko'z. Shul subhidam? Buni bilur ekansen, sabab menga aytmadining?

Saragul. Oxirgi daqiqada aytib Sizdan suyunchi olmoq niyatida aytmagani erdim! Suyunchingizni bering endi, bibim!

Suluvko'z. Shul subhidam... shul subhidam yetib kelur. Yo rab!

Saragul. Sizga ne bo'ldi? Quvonmoq o'rniiga tahlikaga tushasiz, malikam?

Suluvko'z. Yo'q-yo'q. Suv ber, jonginam, suv!

Saragul ko'zachadan suv quyib beradi.

Saragul. Nechun titraysiz? Meni ham qo'rqtib yubordingiz, bibim!

Suluvko'z yuzini qo'llari bilan to'sib yig'laydi.

Saragul. So'zlang, malikam! Ko'nglingizda ne g'ubor, ne sir-asror bor - yashirmang mendan! Sizning boshingizga kelgan qilich men joriyangiz boshiga ham kelur!

(Suluvko'z hamon titrab yig'lar.) Yo anov (shivirlab) qalang'i-qasang'i memor to'g'risidagi mish-mishlarda jon bormu?

Sukut.

Saragul. (dahshat ichida.) Yo xudoyim! Nahot Siz, janob Sohibqironning Ollo qovushtirgan mankuhasi, ul zoti sharifga xiyonat qildingiz?

Suluvko'z. (Kaftlarini yuzidan oladi, ko'zlar yonib.) Yo'q, yaratgan egam shohid. Sohibqiron hazratlari oldida sutday oq, norasida go'dakday pokmen! Pok!

Saragul. Yo'qsa sabab qaltiraysiz? Sabab qo'rqsiz, bibim?

Suluvko'z. Ul sho'rlik... ul sho'rlik memorning boshiga ishq savdosi tushmish...

Saragul. Sho'rlik bo'lmay qora yerga kirkay ul betovfiq! Betovfiq bo'lmasa, kimsan fotihi muzaffarning mankuhasiga ishq tusharmu?

Suluvko'z. Yo'q-yo'q! Sen o'ylagan yomon niyatda ermas. Bor-yo'g'i jamolingizni bir ko'ray deb, oyoqlarim ostig'a yiqildi...

Saragul. Siz ersa... ul nobakorning bul mash'um tilagini bajo keltirdingiz?

Suluvko'z. Ne qilay, boshqa choram qolmad! Yo'qsa... qurilishni tugatmay masjidi jome peshtoqidan o'zimni tashlayman dedi...

Saragul. Siz bo'lsa... ul telbaning bul yolg'on po'pisasiga inonib, ruxsoringizni ko'rsatdingiz?

Suluvko'z. Yo'q-yo'q! Ko'nmadim, sira ko'nmadim!

Saragul. Ko'nmagan bo'lsangiz, nechun bu vahima, bu tahlika?

Suluvko'z. Shunda ul...

Saragul. So'zlang!

Suluvko'z. Shunda ul aytdiki, yuzingizdag pardani... pardani olmasangiz ham mayli... faqat faqat bir bo'sa, dedi.

Saragul. Imonsiz!

Suluvko'z. Ne qilay, choram qolmad. (Yig'laydi). Ammo yonog'imga lab ermas, bamisol bir cho'g' tegdi. Vujudimdan o't chiqib ketdi.

Saragul. Aqlingiz qayda edi, aqlingiz? So'ng ne bo'ldi, so'zlang borini!

Suluvko'z. Saroya ot surib kelib, ko'zguga qarasam, rostdanda lab ermas, cho'g' tegibdur yonog'imga. (Hiqillab) Mana necha kundirki, qilmagan muolajam qolmad. Qora dog' ketmaydur, ketmaydur.

Saragul qahr bilan Suluvko'zning yuzidagi pardani yulib oladi va qo'rquv ichida orqaga tisariladi.

Saragul (sensirab). Ha, yonog'ingga cho'g' emas, lab turqidagi cho'g' tegibdur, otash temir tegibdur, otash! (Alamdan qovurilib) Men ersam, men anqov ersam, saroydagi bu mish-mishlarning barchasi tuhmat degan so'zlaringga inonib, bir oy tunu kun orom bilmay ot surib, arzingni kimsan Jahongir hazratlariga yetkazibman.

Suluvko'z. Saragul! Birdan bir suyanchim...

Saragul. Endi ne degan odam bo'ldim men? Erta-buruskun olampanoh yetib kelganlarida uning yuziga qanday qaraymiz, behayo?

Suluvko'z Saragulning oyoqlari ostiga yiqiladi.

Suluvko'z. Oyog'inga bosh urib iltijo qilaman: meni qutqar. Ana, yostig'im ostida xanjar! Uni ko'ksimga sanchib bo'lsa-da, ro'moling ila bo'g'ib o'ldirsang-da, meni bul sharmisorlik, bul malomatlardan qutqar, oltinim, Saragulim!

Tashqaridan taraq-turuq ovozlar keladi.

Suluvko'z (vahima ichra). Hazrat sohibqiron? Yo parvardigor? Endi ne qildim? Qayg'a qochay? Qayga kiray?

Saragul. Janob Sohibqiron ermas! Davlatpanoh nog'oralar gumbiri, karnay-surnaylar sadosi ostida as'asayu-dabdaba ila kelurlar!

Suluvko'z. Kim bo'lmasin - kiritma! Xasta de! Otash ichra qovrilib yotibdi de!

Suluvko'z u yog'dan bu yoqqa yugurib, shamlarni puflab o'chiradi. Saragul qo'shni xonaga o'tadi. Tashqaridan Aqchagul kiradi va Suluvko'zning xonasi tomon intiladi.

Saragul. Bibimiz betob! Ahvoli og'ir!

Aqchagul. Daf bo'! Bilamen ne dardga uchragan? Bu yerda ne sir-asror bor - barini bilamen. Yo'limni to'sma. Hozir Bibi Sardor ila shayx Nuriddin hazratlari qadam ranjida qiladurlar! Shayton uya qurgan bul dargohga!

Saragul. Barcha sir-asrorlardan voqif bo'lsang, ularni Bibi Sardorga yetkazgan ham senmu?

Aqchagul. Men!

Saragul. Xudodan qo'rq, singiljon! Biz bu dunyoga kelib, neki yaxshilik ko'rgan bo'lsak - shul baxti qaro bibimizdan ko'rmasidikmu?

Aqchagul. Bul behayo badbaxt nozanin neki yaxshilik qilgan bo'lsa - menga ermas, senga qildi! Unga sirdosh ham, qurdosh ham sen bo'lding! Agar menga inonganda nechuk chopar qilib meni ermas, seni yubordi. Kim bilur, agar sening o'rningda men bo'lganimda sohibchangal lochinimni asrab qolgan bo'lurmidi? Aqalli jon taslim qilayotganida, oltin boshimi silab taskinu tasall berarmidim unga? (Yo'qlab yig'laydi). Burgut desam burgutim, shunqor desam - shunqorim, sen o'lguncha men o'lsam bo'lmasmidi? Janob Sohibqironga otilgan o'q sening ermas, menin ko'ksimni teshsa bo'lmasmidi?

Tashqarida otlar dupuri eshitiladi, eshik ochilib, Shayx Nuriddin bilan Bibi Sardor kiradi.

Bibi Sardor (Saragulga). Sen nechuk eshikda sarbozday serrayib turibsen, kanizak? Yo ro'parangda turg'onlarni tanimay qoldingmu Bibing birla qo'shmazor bo'lg'ur, behayo!

Saragul (Tazim qiladi). Bir qoshiq qonimdan kechgaysiz, Bibi momo. Malikam qattiq xastalar!

Shayx Nuriddin. Biz ham Bibingiz betob bo'lg'onini eshitib, holidan xabar olmoq azmida keldik. (Kinoyamuz). Ijozat bergaysiz, malikam!

Eshikni ochadi.

Bibi Sardor. Nechuk bu xona zindonday zimiston?

Aqchagul. Hozir, hozir...

Ichkariga kirib shamlarni yoqadi, xona charaqlab ketadi. Saragul o'zini kursiga tashlab, boshini changallab oladi. Suluvko'z teskari o'girilib olgan. Bibi Sardor bilan Shayx Nuriddin ichkariga kiradilar.

Bibi Sardor. Janob Sohibqiron topshirig'i ila sendan xabar olg'oni Shayx Nuriddin hazratlari tashrif buyurmishlar.

Suluvko'z (Zaif tovushda). Toabad minnatdormen...

Bibi Sardor. Xasta bo'lmoq tugul jon taslim qilayotg'on bo'lsang ham o'rningdan tur, beadab! (Aqchagulga) Yordam ber, bekangga!

Aqchagul to'shakka yaqinlashadi.

Suluvko'z (Talvasaga shushib). O'zim, o'zim!

Suluvko'z yuzidagi pardani mahkam ushlagancha tazim baho keltiradi.

Bibi Sardor. Xasta bo'lsang, hakimlarni yo'qlamoq lozim. Dori-darmon qilsinlar!

Suluvko'z. Yo'q-yo'q. Kerak emas, o'tib ketur, o'tib ketur!

Bibi Sardor. Yo'qsa sabab bul talvasa? Sabab bezgak tutgandek qaltiraysen?

Shartta yuzidagi pardani yulib oladi. Suluvko'z jon holatda betini qo'llari bilan to'sadi.

Bibi Sardor. Bune dog', malikam? (Suluvko'z sukulda. Bibi Sardor uning iyagidan ko'taradi.) Dog' ermas bu, bir nomard nomahramga yonog'ingdan tishlatibsen, manjalaqi!

Suluvko'z. Oyog'ingizga yiqlamen, iltijo qilamen. Tuhmatlarga inonmang, oliyhimmat bibim!

Bibi Sardor. Mening so'zim tuhmat bo'lqa, bul qora dog' ne, yuzsiz? Yaxshiroq kelib, bir qarang, Shayx Hazratlari.

Shayx Nuriddin. (Qo'llarini siltab). Hazar, alhazar!

Bibi Sardor. Yo tavba. Bunday behayo - besharm manjalaqini yer yutsa bo'lmasmu, e yaratgan egam. Kimsan hazrat Sohibqironday bebabu tulporni ko'chada qolg'on bir eshakka olmoshtirmoq!.. Erta-burusun Olampanoh muzaffar safardan qaytganda qaysi yuz ila uning yuziga qaraysen, benomus?

Suluvko'z. Ey qudratli egam! Qaysi gunohlarim uchun bu haqorat, bu ko'rgulik?

Bibi Sardor. Qilgulikni qilib qo'yib, ko'kka nola qiladiya bu yuzsiz. Ehtiyot bo'lmoq kerak bul behayoga? Ming ishva ila soqchilarini ham sehrlab, qochib ketmog'i ham dargumon ermas bu jodugar!

Shayx Nuriddin. Xotirjam bo'ling, barcha ehtiyyot choralar ko'rildur, Malikam (chiqadi).

To'satdan nog'oralar gumburlaydi.

Bibi Sardor. Ana, muzaffar sarkarda sharafiga to'y-tomosha boshlandi. Qaysi yuz ila Sulton Salotinning ko'ziga ko'rinasen (Saragulga) Sen-chi, bibing birla qo'shmozor bo'lg'ur, qo'shmachi! (Aqchagulga) Beri kel. Qulog'ingga aytadurg'on so'zim bor! Chiqadilar. Suluvko'z sarosima ichida xonani gir aylanadi. (Daricha oldida to'xtab). E, parvardigori olam! O'zing ko'rib turibsen. Qo'shg'oningga xiyonat qilmaganimga o'zing shohidsen. Mana, necha yildirki, jufti halolim xayoli ila yashadim. Kunlarim ham, tunlarim ham visol orzusida o'tdi! Jismim ham pok, dilim ham, ko'nglim ham.

Saragul. Bandasi adolatsiz bo'lsa, yaratgan egamadolatlari. Shoyad gunohingizdan o'tsa.

Suluvko'z. Parvardigori olam gunohimdan o'tganda ham yuzimda bul mash'um dog' turganda janob Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy Hazratlarining ko'ziga qanday ko'rinen.

Shartta darichani ochadi. Nog'oralar gumburi, karnaylar vot-voti, otlar kishnashi qo'shilib, yero-ko'k larzaga keladi.

Dorussaltanat uzoq-yaqinda yongan mash'alalardan charog'on.

Suluvko'z. Aylanayin, Saragul. Qurg'on masjidimni bir ko'ray!

Saragul shamlarni bitta-bitta puflab o'chiradi. Behisob mash'alalar va gulxanlar shu'lasida tungi Samarcand seryulduz osmonni eslatadi. Qorong'uda Suluvko'zning nidosi yangraydi.

Suluvko'z. Gunohkor bandangni o'zing kechirgaysen, yaratgan egam! Bul makonda o'zing qo'shgan xo'jam ila diydorlashish nasib etmadi, shoyad ul makonda diydorini ko'rsam! (Sakrab daricha peshiga chikadi).

Saragul. (Dahshatga tushib). Bibim, to'xtang, Bibim!

Qorong'uda Suluvko'zning "Alvido, hazratim, alvido! degan ovozi eshitiladi. Nog'oralar gumburi arshi-aloga chiqadi.

Parda

To'rfinchi ko'rinish

O'trordagi ikki bo'lmadan iborat qarorgoh. O'ng tomondagi xonaning to'rida baland to'shak. To'shakda xasta Sohibqiron hazratlari yotibdilar. So'rining bosh tomonidagi sakkiz qirrali xontaxtada dori-darmonlar solingen behisob shisha va ko'zachalar. Poygakda chuqur sukulga cho'mib, Hakim azam bilan eshik og'asi Qalqonbek o'tiribdi. Burchakdag'i o'chokda lovillab saksovul yonmoqda. So'l tomondagi xona nisbatan yorug'. Qator kursilarda bir qancha sarkardalar, tabiblar o'tirishibdi, ular orasida birgina amir Barlos teginni taniymiz. Tashqarida och shaqallar ovozini eslatuvchi qora bo'ron uvillaydi. Bo'ron avjiga chiqqanda qarorgoh go'yo jonli maxluqday titravdi, silkinadi.

Sirtdan ustlarida qashqir po'stin, boshlarida bo'rk shayx Nuriddin bilan shahzoda Xalil Sulton kirib, bo'rk va po'stinlaridagi qorni qoqadilar. Hamma o'rnidan turadi.

Amir Barlos. Bo'ron battar avjiga chiqmoqda chog'i?

XalilSulton. Ha, besh battar qutirmoqda. Otlarning ustiga kigiz yopsak-da, nafi yo'q. Tuyoqlari yaxlab yerga yopishib qolmoqda.

Amir Barlos. Vo darig'. Bu ne ko'rgilik? G'ala-g'ovur xitoblar: Bir haftadurki, tunu-kun uvillaydi! O'tovlarni saksavul ham isitmay qo'ydi!

Shayx Nuriddin. Bul g'alayondan ne foyda? Hammasi omadli!

XalilSulton. Hazrat Sohibqiron shifo topsa - bari o'rniq tushur. Hakimi azam qayda?

Ichkaridan Hakimi azam bilan eshik og'asi Qalqonbek chiqadilar.

XalilSulton. Sizda ne mujda bor, janob Hakim?

Hakimiazam. Bandai ojiz qo'lizmizdan neki muolaja kelsa - barini qo'llamoqdamiz, shahzodai juvonbaxt!

XalilSulton. Nafi bormi, yo'qmi bu muolajangizdan? Mundan so'zlang.

Hakimiazam. Ollo shifo bersa, ajab emas! Ammo...

XalilSulton. Tilingizni g'o'ldiratmay so'zlang barini. Haqiqatni bilmog'imiz darkor!

Hakimiazam. Nadomatlar bo'lg'ayki, janob Sohibqironning harorati tushmay alahsiray boshladilar?.. Ko'zlariga har narsa ko'rindur.

Qalqonbek (Jur'atsizgina). Ehtimol Hirotga Mirzo Shohruh janoblariga xabar bermoq lozimdu.

Amir Barlos. Haq so'z. Chopar yo'llamoq lozim!

XalilSulton. Haq so'z emish (Qalqonbekka) Sen nobakor Hazrat Sohibqiron olamdan ko'z yummashdan turib undan umid uzdingmi, nomard?

Shayx Nuriddin. Boz ustiga hazratlarining sevimli nabirasi shahzoda Xalil Sulton va sadoqatli zohir bul sarkardalari haziru nozir bo'lib turg'onlarida hamma yoqqa ot surib vahima ko'tarmoqqa hojat yo'kdur, eshik og'asi!

Qalqonbek. Avf etgaysiz hazratim...

Ichkaridan: "Bibim! Bibijonim! degan ovoz keladi.

Hakimiazam. Ana! Yana alahsiray boshladilar...

Hamma eshik tirqishiga intiladi. Bu - xonadagi shamlar so'nib, janob Sohibqiron xonasasi biroz yorishadi. Sohibqiron egnida tuya junidan to'qilgan oq chakmon, boshida kimxbob qalpoqcha, qaddini rostlab, nimqorong'u burchakka tikilib qolgan. Eshikdagilar lol, chunki burchak bo'm-bo'sh.

Sohibqiron. Bibim, bibijonim. Izlay-izlay keksayganda topgan duru-gavharim. Nechuk meni kutmading? Meni kutmay aziz joningga qasd qilding?

Xalil Sulton va Shayx Nuriddin yetib kelib uni suyab qoladilar, Hakimi azam qandaydir suyuqlik tutadi.

Sohibqiron (dorini ichib). A? Bu ne? Tushummu, o'ngimmu? Bibim qayda? (boshini ko'tarib uyoq-bu yoqqa qaraydi). Bul qattol bo'ron hanuz to'xtamabdur. Lashkarlarimning holi ne bo'lidi?

XalilSulton. Valinemat! Bezofta bo'limgan. Sodiq lashkarlaringiz safarga shay turibdur.

Sohibqiron. Shahzoda Xalil Sulton? Sen qaydin kelding? Menga ne bo'lidi? Qayda men o'zi?

Shayx Nuriddin. Siz O'trorda, o'z qarorgohingizdadursiz. Olampanoh. Inshoollo bukun-erta shifo topursiz. So'ng maqsad sari ot sururmiz.

Sohibqiron. Ha, ot surmoq darkor, ot surmoq!

Ular chiqishi bilan Sohibqiron yana boshini qo'tarib, nimqorong'u burchakka tiqiladi.

Sohibqiron. Bul kim? Yovuz Chingizxon? Anov kim? Sotqin To'xtamish? Sulton Boyazid ne qilib yuribdi mening qarorgohimda!

Qaydasen, Qalqonbek!

Qalqonbek kirib tazim qiladi.

Qalqonbek. Xizmatingizga mutnazirmen, davlatpanoh.

Sohibqiron. (qo'lini burchak tomon niktab). Anov munofiq g'animplarim ne qilib yuribdur mening saroyimda?

Qalqonbek. (dovdirab). Kim? Kimlarni aytadursiz, hazratim?

Sohibqiron. Ko'zing ko'rmi anovilarni ko'rmaysen?.. Yovuz Chingizxon, xoin To'xtamish! Muzaffar lashkarlarim yakson qilg'on mag'lub Yildirim! Ayt ularg'a: men To'xtamishday tuzimni yeb, tuzlug'imga tupurgan ila so'zlashmaymen.

Qalqonbek. Va to'g'ri qillardursiz, Olampanoh!

Sohibqiron. Anov Yildirim ham ko'zimdan daf bo'lg'ay. Unga aytadurg'on bir so'zimni bir marotaba aytg'anmen. Mag'lub lashkarları magar mard bo'lsa, g'ururini jilovlab, taqdirig'a tan bermog'i darkor. Yovuz Chingiz qaerga gumdon bo'lidi? Yo'qla. Unga aytadurg'on so'zim bor, ko'ksimda alamim bor! (boshini yostiqqa tashlaydi).

Qalqonbek sarosima og'ushida burchak tomon yurib, kimgadir qo'llarini siltagan bo'ladi-yu, oyoq uchida yurib qo'shni xonaga chiqadi. Sohibqiron xonasidagi shamlar o'chib, qo'shni xona yorishadi.

Amir Barlos. Ne bo'lidi? Tinchib uyquga ketdilarmu?

Qalqonbek. Bilmam, Amirim. Hanuz alahsiraydur, ko'ziga birda To'xtamishxon, birda Sulton Boyazid, birda Chingizxon keladur.

XalilSulton. (Hakimga). Bir chorasisi qilg'aysiz, janob Hakimi azam. Dori-darmon qiling!

Hakimiazam. Hazratlarning es-hushlari joyidadur, faqat ruhi bezovtadur, xolos. Inshoollo o'ziga kep qolur.

H a m m a. Inshoollo, Inshoollo!

Ichkaridan: "Ha, qattol! degan hayqiriq eshitiladi. Bu xonadagi chiroqlar o'chib, ichkari xonada shamlar yonadi. Sohibqiron to'shakda qaddini rostlab, burchakka tikilib qolgan. Burchakda Chingizxon ko'lankasi.

Sohibqiron. Yurtimni oyoq osti qilg'on, ko'rkan shaharlarimni vayronxonaga aylanturg'on battol, bamisoli o'laksa hidini sezgan quzg'unga o'xshab, tag'in ne matlabda yuribsen mening hududimda?

Chingizxon. (Hiringlab kuladi). Hi, hi, hi... Men battol yurtingni toptab, obod shaharlaringni kultepaga aylanturg'on jallod, Temur Ko'ragoni esa... farishta!

Sohibqiron. Yo'q, men ham farishta emasmen. Benuqson yolg'iz parvardigor. Magar mard bo'lsang qadamim yetgan joylarni, zabit etg'on shaharlarni borib ko'rl! Bir g'isht ko'chsa, o'n g'isht qo'yдум, Olloho taolo shohid: Hirotu Mashhad, Damashqu Bog'dodda bunyod etgan saroylar, masjidu-madrasalar ul shaharlarning ko'rkiqa-ko'rк qo'shib turibdur!

Chingizxon. Yodingdan chiqmasun, Sohibqiron. Men sahroda tug'ilgan avom bir sahroyimen. Men uchun bir bog' yantoq, bir hovuch yavshan sen aytg'on o'shal ko'rkan shaharlardan afzaldur.

Sohibqiron. Makoning sahro erkan, go'zal bo'stonlar qadrini bilmas erkansen, nechun gulday elimni otlaring tuyoqlari ostida toptading? Nechun O'troru Samarqand, Buxoroga, Urganchday muazzam shaharlarimga o't qo'yib, shaqallar makoniga aylantirding? E, yaratgan egam! Nechun ojiz bandangni bu sahroyi qashqir bostirib kelganida bunyod etmading?

Chingizxon. (Kuladi). O'sha mavridda tug'ilg'oningda qo'lingdan ne kelardi?

Sohibqiron. Hozir ko'rsatamen, qo'limdan ne kelar erdi?

Shitob bilan o'rnidan turadi. Uning vajohatidan qo'rqqulik: mushtlari tilig, ko'zlaridan o't chaqnaydi. Ko'laga orqaga tisarilib gumdon bo'ladi.

Sohibqiron. To'xta, shaqal, to'xta... .

Chayqalib ketadi, Xalil Sulton va boshqalar yugurib kirishib, suyab qolishadi va joyiga yotqizishadi.

XalilSulton. (Tiz cho'kadi). Valinemat! Siz sher erdingiz, sher? Ne bo'lidi sizga?

Sohibqiron. A? (Ko'zini ochar). Ne g'ov-g'uv bul? Hanuz tinmadimu bo'ron? Bo'ron ermas, och qashqirlar, shaqallar uvillaydur.

Hakimiazam. Manov doridan bir qultum ichgaysiz, olampanoh! Baniyati shifo...

Sohibqiron. (Og'ir hansirab). Yo'q, endi sening dori-darmonlaring shifo bermas! Saroybon qayda?

Qalqonbek. Qulog'im sizdadur, Hazratim!

Sohibqiron. (To'xtanglar, degan manoda qo'lini ko'taradi). Ammo mana, hukmi Olloho bul bebaqo makondin, ul boqiy makonga yo'l olmoq onlari kelibdur. Bas, ko'zim tirik, aqlim raso mavridda ay-tadurg'on so'gati kalomimni aytib, rozi-rizoligimizni olmoq matlabida yo'kdadim Siz shavkatli habiblarimni!

Xitoblar: Olampanoh! Bunday demang, Vali-nemat! Olloning mehru-muruvvati cheksizdir!.. So-hibqiron yana qo'lini ko'tarib xitoblarni bo'ladi.

Sohibqiron. Aqlu-hushim joyida ekanida Siz suyangan tog'larimga qiladurg'on vasiyatim shulkim, toju-taxtim vorisi... Ollodon talab qilg'on to'ng'ich surriyotim rahmatlik Mirzo Jahongirning aqli zukko sohibi changal farzandi shahzoda Pirmuhammad bo'ladi!..

Hamma sarosimada. Xalil Sulton o'rnidan sapchib turmoqchi bo'ladi, ammo Shayx Nuriddin uni etagidan tortib o'tqazadi.

"Shahzoda Pirmuhammad, shahzoda Pirmuhammad! degan shivir-shivirlar eshitiladi.

Sohibqiron. Yaniki, shul suyukli nabiramga bay'at qilursizlar. Qasam ichib toabad xizmatida bo'lursizlar (yana g'ala-g'ovur, Sohibqiron qaxri keladi). Bul ne shivir-shivir? Ne pichir-pichir? Hali ko'zim yumilmasdan turib, bul nizo, bul nifoq. Ochiq so'zlang. Kim norozi? (Sado yo'q). Yodlaringda bo'lsin as-salotin amri-hukmi xudodir! So'zim ayonmu?

Ovozlar: Ayon, Olampanoh, ayon!

Sohibqiron. Biz qirq yil birga ot surdik. Ollo bergan tuz-nasibani birga baham ko'rib, Mashriqdan Mag'ribga cho'zilgan hududsiz davlat qurdik. Ammo yodlaringda bo'lg'ay. Davlat har qancha qudratli bo'lmasun, uning tomirig'a bolta uradurg'on uch xatar bor: birlamchi o'zaro noahillik, ikkilamchi jaholat, uchinchisi tarafkashlik. Shul uch xatardan ehtiyyot bo'lsangizlar - faqir tiklagan bu davlat - tog'day abadul-abad turadur! (Yana g'ala-g'ovurni bosib). Kimki, bul vasiyatga xiyonat qilsa, xoh farzandlarim bo'lsun, xoh sarkardalarim - qarg'ishimga mubtalo bo'ladur.

Ovozlar: Bul vasiyatingiz toabad yodimizda turadi. Inshoollo yodimizda saqlaymiz!..

Sohibqiron. Kimki bul yo'lda menga vafo qilg'on bo'lsa, vafo topadi, jafo qilg'on bo'lsa jafo topadi. Ojiz banda ulug' davlat quramen deb, nafaqat g'animlarim, ehtimol sizday sadoqati zohir sarkardalarimga ham ozor bergan onlarim bo'lg'ondir.

"Olampanoh, davlatpanoh! degan xitoblar.

Sohibqiron. Kimningki diliqa ozor berg'on bo'lsam, kimniki nohaq ranjitgan bo'lsam, shu yurt obod bo'lsin deb, davlatim qudratli bo'lsin deb qilg'ondurmen. Rozi bo'linglar. Faqir ham sizlardan rozimen!..

Yig'i aralash xitoblar: "Biz ham sizdan rozimiz, olampanoh. Bu dunyo, u dunyo rozimiz. Siz ham bizning gunohlarimizni afu eting, davlatpanoh!

Sohibqiron. Mavlono Muarrixdan boshqa, barchangizga ijozat!

XalilSulton. (Tiz cho'kadi). Valiyenemat, sabab meni haydaysiz? Sabab so'nggi onlaringizda yoningizda bo'lmoq baxtidan mosuvo qilasiz?

Sohibqiron. Men sendan ham rozimen. Yaratgan egam senga va barcha farzandlarining farzandlariga sabot va inoqlik ato qilg'ay! Bor, bolam, bor...

(Peshonasini o'padi. Xalil Sultan ko'zlarini artganicha qoqinib, surinib, xonadan chiqadi).

Sohibqiron. Qaydasiz, Mavlono? Daftar qalamingizni olib, yaqinroq o'tiring!

Muarrix (Kursini surib yaqinroq o'tiradi). Xizmatingizga hoziru-nozirmen, Hazratim!

Sohibqiron. Boya... Kamina olamdan o'tsam... Toju-taxtimni vorisi va valiyahdi nabiram Pirmu-hammad bo'lg'ay deganimda men inongan amiru-umaro norozi bo'lg'anday bo'ldiya, buni uqa oldingmu, Mavlono?

Muarrix. Uqdim, Davlatpanoh, uqdim.

Sohibqiron. Uqqan bo'lsang, ayt: inongan tog'larim ko'zim tirikligida irodamga bo'yusunmoqni istamasalar ko'zim yumulg'ondan keyin bul elda ne bo'lur, Mavlono?

Muarrix. Faqir bu jumboqni yechishga ojizlik qilurmen, Hazratim!

Sohibqiron. Evoh, Buyuk Davlat barpo qilamen deb, qirq yil ot surdim. Bir-biriga qilich o'qtalib, yurtni notinchlikka mahkum etgan qalang'i-qasang'i bek va bekzodalarning g'ururini jilovlab, nizo-nifoqlarig'a chek qo'yib, yurtda osoyishtalik o'rnatdim. Yo bul so'zim nohaqmu, Mavlono?

Muarrix. Haq, valiyenemat, haq!

Sohibqiron. Nadomatlar bo'lsinkim, bul yumushlar ila band bo'lib, o'lim haq erkonini, hukmi ollo, hazrat azroil bir kun mening ham eshigimni qoqib keladur deb o'ylamabmen...

Muarrix. Bu o'ylar ila o'zingizni-o'zingiz behuda qiynadursiz, olampanoh!

Sohibqiron. (Quloq solmay). Magar bul o'y avvalroq xayolimg'a kelg'onda, magar o'z qudratimga inonib ketmog'anumda, bul so'nggi safarga otlanar erkanman, barcha farzandlarim va nabiralarimni yonimga olsam bo'lasmidi? Bu kun bul noraso dunyo ila vidolashayotgan onlarimda, Sizga so'zlayotg'on bul dardi-dunyomni farzanddarimga aytib, barcha sarkardalarimni sheryurak nabiram Pirmuhammadga bay'at qildursam bo'lasmidi. Mavlono?

Muarrix. Ko'p nadomat chekib, o'zingizni o'zingiz qiy Naybermang, olampanoh. Bir daqiqa muqaddam sarkandalaringizga o'z irodangizni bayon et-dingiz.

Sohibqiron. Evoh! Qirq yil bir kun orom bilmay hududsiz bir davlat yaratdim. Va lekin bu kun, hukmi Ollo, jon taslim qilsam, bu davlatning qismati ne bo'lur. Zurriyotlarim va zurriyotlarimning zurriyotlari-chi? Ular ahil bo'lib, faqir barpo qilg'on muazzam binoga yana bir g'isht qo'yadurlarmi yo bil'aks, toju-taxt talashib, uni barbod etadurlarmu? Mana necha kundurki, yolg'iz shul tizginsiz dard, shul notinch o'y yuragimni kalamushday kemiradur, Mavlono! Bul so'zlarimni bitdingmu, Mavlono?

Muarrix. Bitdim, olampanoh, barini bitdim.

Sohibqiron. Barakallo, barakallo. Endi oxirgi kalomim qoldi. Yozg'ilki, Sohibqiron Amir Temur Ko'ragoniy... Janob Azroyilg'a jon taslim qilayotg'on eng so'nggi daqiqada ne mashaqqatlar ila yaratgan davlatining taqdirini o'ylab jon berdi deb. Kimki toju-taxt ishqida nohaqlikka yo'l qo'ysa, ul abadul-abad qarg'ishimga yo'liquadur! Yozdingmu Mavlo-no?

Muarrix. Yozdim, davlatpanoh. Bir so'zingizni qoldirmay yozdim.

Sohibqiron. Yozg'on bo'lsang... Men sendan rozimen, Mavlono. Magar gunohkor banda biror joyda ko'nglingga ozor bergen bo'lsam...

Muarrix. Yo'-yo'q, men ham sizdan rozimen, toabad rozimen, olampanoh...

Sohibqiron. Rozi bo'lsang... Ijozat ber, bir daqiqa orom olay!

(Boshimi yostiqqa tashlaydi, muarrix oyoq uchida yurib xonadan chiqadi, xonaga asta-asta yurib Xalil Sultan bilan Shayx Nuriddin kiradi. Ular kirishi bilan Sohibqiron yana boshimi ko'tarib, g'ira-shira burchakka tikilar...)

Sohibqiron. Bibim? Tag'in keldingmu, malikam? Nechun kelding? (Xalil Sultan bilan Shayx Nuriddin sarosimaga tushib orqaga chekinadilar. Nim qorong'u burchakdan go'zal zarrin matolarga o'ralgan Suluvko'z chiqib keladi.)

Suluvko'z. Tag'in o'shal iltijo, tag'in o'shal iltimos ila keldim, shunqorim! Bu dunyoda qiladurg'on yumushlaringiz ko'p. Bul makonni tark etib, men kelgan makonga shoshilmang, hazratim. Ollo qovushtirgan juftu halolim!

Sohibqiron. G'alati so'zlarni aytasen, malikam. Sen aytg'on narsa faqir ermas, yaratgan egamning izmi ixtiyoridadur. Ammo kamina bul foniq dunyodan ul boqiy dunyog'a shoshilg'on bo'lsam... Sen uchun, sening diydoringni ko'rib, ko'ksingda bir daqiqa orom olg'ali shoshilmoquedamen, Bibim!

Suluvko'z. Yo'q, yo'q, xoxlasangiz oyog'ingizga yiqilib iltijo qilamen. Siz oliyanob niyatda bul yurishga otlang'ansiz. Niyatingiz

This is not registered version of TotalDocConverter
yo Toshkent, O'zbekiston.

Sohibqiron. Mening barcha yumushlarim, barcha niyatlarim sening bir nozli qarashing, bir jilmayib boqishingga yetmaydur.
(Olisdan nay ovozi keladi.) Bul ne? Naymu, navomi? Yoxud Cho'l Iroqmu? Jannatiy kuy! To'xta Bibim. Birga eshitaylik?
Suluvko'z. Ha, jannatiy kuy. Xudo hohlasa joyingiz jannatda bo'lg'ay! Gunohga botgan baxti qaro ersam, yo'-yo'q, men tomonga
talpinmang, talpinmang, shunqorim!.. (Qorong'u burchakda g'oyib bo'ladi).

Sohibqiron. Bibim! Bibijonim! Izlay-izlay keksayganda topgan duru-gavharim! (Yostiqqa bosh ko'yadi. Tashqaridan hamma
yopirilib kirib, to'shak atrofiga tiz cho'kadilar. Shamlar so'nadi. Qorong'uda "Yo rab, yo rab! Ollo taolo rahmat qilg'ay! degan
xitoblar eshitiladi. Yiroqdan boshlangan navo sadosi asta-sekin kuchayib, avjiga chiqadi.

Parda

"Qaydasan, Moriko kitobidan olindi ("Sharq, Toshkent 87" 2002).